




QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2018 yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot(xizmat)larining umumiy hajmi 2552,4 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 105,5 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 2542,7 mlrd.so'mni (105,5 foiz), o'rmon xo'jaligida 4,9 mlrd. so'mni (101,7 foiz), baliq xo'jaligida 4,8 mlrd. so'mni (105,0 foiz) tashkil qildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Yangiqo'rg'on (107,2 foiz), To'raqo'rg'on (107,1 foiz), Mingbuloq (106,8 foiz), Chortoq (106,3 foiz), Pop (106,3 foiz), Kosonsoy (106,2 foiz), Uychi (105,1 foiz), Namangan (104,6 foiz), Uchqo'rg'on (104,5 foiz), Chust (104,5 foiz), Norin (103,4 foiz), Namangan shaxri (104,5 foiz), tumanlarda kuzatildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Namangan tumanining ulushi 16,6 foizni tashkil etdi va hududlar bo'yicha etakchilik qilmoqda, Yangiqo'rg'on tumani esa 17,5 foiz ko'rsatkich bilan keyingi o'rinni egalladi. Eng kam ulush Mingbuloq (3,6 foiz) va Kosonsoy (3,4 foiz) tumanlarida qayd etildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari


2018 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2017 yilning mos davriga nisbatan 105,5 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 105,5 foizni, chorvachilik mahsulotlari 105,6 foizni tashkil qildi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 82,8 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 16,1 foizi fermer xo'jaliklariga, 1,1 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida



Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.


Dehqonchilik

2018 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 1914,0 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 105,4 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 76,0 foizni tashkil qildi.



Hosil yig'imi. 2018 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 318,6 ming tonna jami don, shundan 316,0 ming tonna boshoqli don ekinlari ishlab chiqarilib, shu jumladan 315,6 ming tonnasi bug'doy tashkil qildi. 95,9 ming tonna kartoshka etishtirildi (2017 yilga nisbatan 8,7 foizga ko'p), 218,1 ming tonna sabzavot (4,7 foizga ko'p) yig'ib olindi, 12,4 ming tonna poliz ekinlari (28,7 foizga ko'p), 63,8 ming tonna meva va rezavorlar (27,8 foizga ko'p) va 2,6 ming tonna uzum (44,7 foizga ko'p) etishtirildi.

2018 yilning 1 iyul holatiga dexqonchilik maxsulotlarini etishtirish



| | <i>tonna</i> | <i>O'sish sur'ati, %</i> |
|--|---------------|--------------------------|
| Don jami | 318603 | 88.3 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| Fermer xo'jaliklari | 263908 | 87.8 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 51652 | 91.0 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 3043 | 92.0 |
| shundan boshhoqli don | 315960 | 87.9 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| Fermer xo'jaliklari | 263720 | 87.7 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 49197 | 88.8 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 3043 | 92.0 |
| SHu jamladan bug'doy | 315595 | 87.9 |

shu jumladan:

| | <i>tonna</i> | <i>O'sish sur'ati,%</i> |
|--|---------------|-------------------------|
| Fermer xo'jaliklari | 263355 | 87.7 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 49197 | 88.8 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 3043 | 92.0 |
| Kartoshka | 95922 | 108.7 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| Fermer xo'jaliklari | 6566 | 130.3 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 89328 | 107.4 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 28 | 133.3 |
| Sabzavot | 218107 | 104.3 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| Fermer xo'jaliklari | 14086 | 77.1 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 201738 | 105.9 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 2283 | 683.5 |
| Poliz | 12388 | 128.7 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| Fermer xo'jaliklari | 1869 | 104.9 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 10426 | 134.3 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 81 | 101.3 |
| Meva va rezavorlar | 63823 | 127.8 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| Fermer xo'jaliklari | 16354 | 139.5 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 46856 | 124.0 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 613 | 146.7 |
| Uzum | 2595 | 144.7 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| Fermer xo'jaliklari | 366 | 160.5 |

| | <i>tonna</i> | <i>O'sish sur'ati,%</i> |
|--|--------------|-------------------------|
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 2211 | 143.8 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 18 | 66.7 |

Chorvachilik




2018 yilning yanvar-iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 60,4 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 105,6 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarininzg ulushi 24,0 foizni tashkil etdi.

Chorvachilik. 2018 yilning 1 iyul holatiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 101,7 foizga (jami 676,0 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 105,0 foizga (223,0 ming bosh), qo'y va echkilar 104,1 foizga (736,2 ming bosh), otlar 95,6 foizga (6358 bosh), parrandalar 118,2 foizga (4711,7 mln. boshga) ko'paydi.


2018 yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda tirik vazn hisobida 63,2 ming tonna go'sht (2017 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 2,4 foizga ko'p), 289,9 ming tonna sut (4,1 foizga ko'p), 271,8 mln. dona tuxum (30,9 foizga ko'p), 0,8 ming tonna jung (6,4 foizga ko'p), 0,2 ming tonna asal (17,1 foizga ko'p), 0,8 ming tonna baliq (5,9 foizga ko'p), 1243 tonna piila (2,2 marta ko'p) ishlab chiqarildi.

Ishlab chiqarilgan asosiy turdagi chorvachilik baliqchilik mahsulotlari hududlar kesimida


Go'sht (tirik vaznda)




Sut(tonna)



Tuxum (ming dona)




Baliq (tonna)



Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni

2018 yilning 1 iyul holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 676,0 ming boshga, shu jumladan sigirlar 223,0 ming boshga, qo'y va echkilar 736,1 ming boshga, parrandalar 4711,7 ming boshga etdi. 2017 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 11,0 ming boshga (1,7 foizga), shu jumladan sigirlar 10,5 ming boshga (5,0 foizga), qo'y va echkilar 29,1 ming boshga (4,1 foizga), parrandalar 724,0 ming boshga (18,2 foizga) ko'paydi.


Xo'jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi




2018 yilning 1 iyul holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni ho'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 3,3 foizi fermer xojaliklari hissasiga, 96,4 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xojaliklariga, 0,3 foizi qishloq xojaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 3,4 foizi fermer xojaliklariga, 96,3 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xojaliklariga, 0,3 foizi qishloq xojaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 44,0 foizi fermer xojaliklariga, 38,5 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xojaliklariga, 17,5 foizi qishloq xojaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

Qoramollar va parrandalar bosh soni hududlar kesimida 2018 yil 1 iyul holatiga


Yirik shoxli qoramollar (bosh)




Shu jumladan sigirlar (bosh)



Qo'y va echkilar (bosh)



Parrandalar (ming.bosh)




Fermer xo'jaliklarida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini etishtirish

2018 yil 1 iyul xolatiga 9712 ta fermer xo'jaliklari faoliyat yuritib ular tomonidan yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 406,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo'jaliklarining ulushi 16,1 foizni tashkil etdi.

Hosil yig'imi. 2018 yilning yanvar-iyun oylarida fermer xo'jaliklar tomonidan 263,9 ming tonna jami don, shundan 263,7 ming tonna boshoqli don ekinlari ishlab chiqarilib, shu jumladan 263,4 ming tonnasi bug'doy, 6,6 ming tonna kartoshka (2017 yilga nisbatan 30,3 foizga ko'p), 14,1 ming tonna sabzavot (22,9 foizga kam) yig'ib olindi, 1,9 ming tonna poliz ekinlari (4,9 foizga ko'p), 16,3 ming tonna meva va rezavorlar (39,5 foizga ko'p) va 0,4 ming tonna uzum (60,5 foizga ko'p) etishtirildi.

2018 yilning 1 iyul holatiga fermer xo'jaliklarida 22,6 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan 7,9 ming bosh sigir, 25,2 ming bosh qo'y va echkilar, 390 bosh ot, 2074,1 ming bosh parrandalar mavjud. 2017 yilning 1 iyul holatiga nisbatan yirik shoxli qoramollar soni 0,2 foizga, shu jumladan sigirlar 0,3 foizga, qo'y va echkilar 0,2 foizga kamaydi, parrandalar soni esa 38,2 foizga ko'paydi.



■ 2017 y

■ 2018 y

**2018 yilning yanvar-iyun oylari davomida fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab
chiqarilgan asosiy turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlari**

| | yanvar-iyun | | | | O'sish sur'ati, foizda |
|----------------------|-------------|--|----------|--|------------------------------|
| | 2017 yil | | 2018 yil | | |
| | tonna | ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz | tonna | Ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz | |
| Jami don | 300680 | 83,3 | 263908 | 82.8 | 87,8 |
| shu jumladan: | | | | | |
| boshoqli don | 300633 | 83.7 | 263720 | 83.5 | 87,7 |
| Kartoshka | 5038 | 5.7 | 6566 | 6.8 | 130,3 |
| Sabzavot | 18279 | 8,7 | 14086 | 6,5 | 77,1 |
| Poliz | 1781 | 18.5 | 1869 | 15.1 | 104,9 |
| Meva va rezavorlar | 11724 | 23,5 | 16354 | 25,6 | 139,5 |
| Uzum | 228 | 12.7 | 366 | 14.1 | 160.5 |
| Go'sht, tirik vaznda | 1401 | 2,3 | 1867 | 3,0 | 133,3 |
| Sut | 9349 | 3,4 | 8534 | 2,9 | 91,3 |
| Tuxum, mln. Dona | 52,6 | 25,4 | 109,0 | 40,1 | 207,1 |
| Jun, tonna | 27 | 3,6 | 24 | 3,0 | 90,0 |
| Baliq, tonna | 410 | 54,6 | 459.4 | 57,8 | 112,0 |

Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

- 227-84-82
- 227-84-83